



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

¹ Nomozova Shoxsanam Abdualim qizi

² Mallayeva Husnarobonu Botir qizi

³ Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

¹ Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi;

² Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi;

³ Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi; e-mail:

Jahongir.5066@gmail.com

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI VA AHOLI IJTIMOIY MUHOFAZASI MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining faravonligi, ijtimoiy muhofazasi, ijtimoiy himoya, inson huquq va erkinliklari, shu bilan birga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyadagi bir necha moddalar va ularning mazmuni keng yoritilgan. Shuningdek, bugungi kundagi inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlatimizning ijtimoiy siyosati, amalda faoliyat olib borayotgan mexanizmlari hamda qonunlari to'g'risida muallif o'z fikrlarini bayon qilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhofaza, ijtimoiy himoya, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, huquq va erkinliklar, "Human Rayts Votch Xelsinki", Ijtimoiy himoya milliy agentligi, demokratiya, qonunlar.

Аннотация: В данной статье широко освещены благосостояние населения, социальная защита, социальная защита, права и свободы человека, а также ряд статей Всеобщей декларации прав человека и их содержание. Также автор высказал свое мнение о текущей социальной политике нашей страны, механизмах и законах по защите прав человека.

Ключевые слова: социальная защита, Конституция Республики Узбекистан, Стратегия действий, Стратегия развития, Всеобщая декларация прав



человека, права и свободы, «Human Rights Watch Helsinki», Национальное агентство социальной защиты, демократия, законы.

Abstract: This article widely covers the welfare of the population, social protection, social protection, human rights and freedoms, as well as a number of articles of the Universal Declaration of Human Rights and their content. The author also expressed his opinion on the current social policy of our country, mechanisms and laws for the protection of human rights.

Key words: social protection, social protection, Constitution of the Republic of Uzbekistan, Action Strategy, Development Strategy, Universal Declaration of Human Rights, rights and freedoms, “Human Rights Watch Helsinki”, National Agency for Social Protection, democracy, laws.

Kirish. Aholi va uning farovonligi, ijtimoiy muhofazasi taraqqiy etgan barcha mamlakatlarning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Shu jumladan, O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida davom etar ekan, ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil demokratik yo‘ldan dadil borayotgan O‘zbekistonning eng ulug‘ maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlarini ko‘zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan ham e‘tiborlidir. Umuman insoniyat jamiyatida tartibni o‘rnatish ehtiyojidan kelib chiqib davlat vujudga kelyapti.

Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo‘yilgan hisoblanadi. Jumladan, yangi tahrirdagi Bosh Qomusimizning II bob 13-moddasida “*O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.*”

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.” 14-moddasida esa, “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.”

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlarga sodiqligini namoyon qilish, yurtimizdagi bugungi kunda kechayotgan ulkan o‘zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi.

Insoniyat jamiyati shakllangandan boshlab odamlar baxtli yashaydigan faravon jamiyatni orzu qilib kelmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ham oxir oqibatda odamlar hayotini baxtli qilishga qaratilgan. Ushbu xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Bu islohotlarning



asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta’minlashdir”¹ - deb ta’kidlaganlar.

Aynan biz bugun mustaqil davlat va jamiyat qurish, hamda xalqimiz uchun hech kimdan kam bo‘lmagan faravon hayot barpo etish yo‘lida tarixan qisqa davrda haqiqatdan ham asrlarga teng bo‘lgan masofani bosib o‘tdi. Farovonlik – tug‘ilganimizdan har birimizning qo‘limizga beriladigan yo‘llanma sifatidagi mukofot emas. Shu sababli yaxshi hayot va faravon turmushimizni biz o‘zimiz, jamiyat fuqarolari – jamiyatimizdagi muammolarni hal qilib borishimiz davomida yaratamiz. Odamlar baxtli bo‘lishlari uchun, eng avvalo, ularning zarur hayotiy ehtiyojlari qondirilgan bo‘lishi lozim.²

Asosiy qism. Demokratiya asosi – mustaqillikni saqlash va mustahkamlash ijtimoiy hayotimizning barcha sohalari – ishlab chiqarish va moliya, siyosiy va huquqiy tizim, aholini ijtimoiy himoyalash, ma’naviy hayotimiz tarmoqlarini qaytadan tiklash sohasida mana shunday ziddiyatli-nizoli tarzda kechgan. 1991-yil 31-avgustda istiqbolga erishilgandan so‘ng, asosiy e’tibor sotsial sohaga qaratildi: bozor munosabatlariga asoslangan tuzumga o‘tar ekanmiz, aholini ijtimoiy himoyalash birinchi o‘ringa chiqdi.³

O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir. 2017-2021- yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy-madaniy huquqlarni ta’minlash sohasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu jumladan, Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida 2022-2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Bunda, ya’ni ushbu hujjatda yaqin va o‘rta istiqbolda kutilayotgan o‘zgarishlar, O‘zbekistonning taraqqiyot tendensiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks tarzda rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan.

Xususan, mamlakatimizda inson huquqlari va ularning erkinliklarini ta’minlash masalasi xalqimiz uchun faravon va munosib turmush tarzini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib bormoqda.

Jamiyatning hozirgi kundagi muammolaridan biri kishilarni rozi qilish. Ijtimoiy muhitdan, davlatning olib borayotgan siyosatidan, adolatli turmush tarzidan norozi bo‘lgan fuqaro mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. Ayniqsa, bugungi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil va qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent, 2017, 6-bet.

² “Raqamli ijtimoiy ish va aholi himoyasi: muammolar, yechim, istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi (2022-yil 26-dekabr) SAMARQAND – 2023. 69-70-bet.

³ Quchqorov J.S. “O‘zbekiston hududida milliy g‘oya va demokratik o‘zgarishlar dialektikasi bosqichlari (monografiya). Samarqand – 2021. 130-bet.



globallashuv davrida jahonda yuz berayotgan o'zgarishlardan, yengillik va islohotlardan xabardor bo'lgan kishi borki, bu sharoitdan o'zi ham foydalana olishga intiladi.⁴

Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning barchasi insonlar hayotini, ularning dunyoqarishi hamda turmush tarzini o'zgartirmoqda. Jamiyatimizda "Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz" degan ulug'vor maqsad shakllandi. Shu bilan birga "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan g'oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda.

Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir. Bu yo'nalishda oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq.⁵

O'zbekiston xalqaro maydonda amalga oshirayotgan barcha ishlari doirasida inson huquqlarini himoya qilishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Mamlakatimiz xalqaro huquqning subyekti sifatida rivojlanishining yangi boshqichiga ko'tarildi. O'zbekistondagi inson huquqlari haqidagi ma'lumotlarni to'plagan holda sarhisob qilganimizda quyidagi xulosalar yuzaga keldi. Jumladan:

- inson huquqlari yuzasidan ko'plab qonunlar va qonunchilik shakllantirildi;
- mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlashning yangicha institutsional mexanizmlari yaratildi;
- davlat inson huquqlari sohasi bo'yicha xalqaro darajadagi hamkorlikni amalga oshirmoqda;
- shu bilan birga, inson huquqlari bo'yicha ta'lim, ma'rifat va bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Hech bir davlat o'zini umumiy tendensiyalardan ayro holda tasavvur qila olmaydi. Shu jumladan, xalqaro darajadagi hujjatlar ichida ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi har bir insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, hisoblanadi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng birinchi xalqaro-huquqiy hujjatdir. Demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilgan O'zbekiston inson huquqlarini va manfaatlarini o'z jamiyatini rivojlantirish va davlat qurilishining, butun tashqi va ichki siyosatining

⁴ Abbasova M.S. "Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri" monografiya. Samarqand – 2023. 89-90- betlar

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 28-dekabr 2018-yil. Toshkent – "O'zbekiston" – 2019



eng oldingi ustuvor yoʻnalishi qilib belgiladi. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas boʻlgan huquq va erkinliklari eʼlon etilgan yagona hujjatdir. Shu tariqa xalqaro munosabatlar tarixida ilk marotaba insonning barcha rioya etishi zarur boʻlgan asosiy huquqlari va erkinliklari doirasi belgilab berilgan.

Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ijtimoiy muhofaza masalalariga alohida eʼtibor berilgan. Jumladan, deklaratsiyaning 22-moddasida “Har bir inson jamiyat aʼzosi sifatida ijtimoiy taʼminotga va oʻzining qadr-qimmatini saqlash, shaxsning erkin rivojlanishi uchun zarur boʻlgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi huquqini milliy say-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik orqali va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq amalga oshirishga haqli”.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalari Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, shu bilan birga insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli darajada himoya qilinishini taʼminlaydigan milliy qonunchilik meʼyorlarida oʻz ifodasini topgan hisoblanadi.

Bozor islohotlarini izchil ravishda amalga oshirish, yirik davlat ijtimoiy dasturlarini tadbiq etish orqali mamlakatimizda insonning, avvalo, bolalar, yoshlar va ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy huquqlarini himoya qilish, ularning har tomonlama munosib shart-sharoitlar bilan yashashi taʼminlandi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlari yoʻlga qoʻyilgan va ular amalda samarali joriy etilmoqda. Bugungi kunda inson huquqlariga rioya qilinishi ustidan monitoring va nazoratni taʼminlovchi milliy institutlar – Inson huquqlari boʻyicha milliy markaz va amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Toshkent shahrida hukumatga qarashli boʻlmagan “Human Rayts Votch Xelsinki” xalqaro tashkilotining vakili va boshqa chet el vakillari faoliyat yuritmoqda va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar bilan ham yaqin aloqalar yoʻlga qoʻyilgan.

Shu bilan birga, deklaratsiyaning 25-moddasida: “1. Har bir inson oʻzining hamda oilasining salomatligi va faravonligini taʼminlash uchun zarur boʻlgan turmush darajasiga ega boʻlish, jumladan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega boʻlishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bogʻlik boʻlmagan sharoitlarga koʻra tirikchilik uchun mablagʻ boʻlmay qolgan boshqa hollarda taʼminlanish huquqiga ega.

2. Onalik va bolalik alohida gʻamxoʻrlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tugʻilishidan qatʼiy nazar bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak.”



So‘nggi yillardagi bo‘layotgan o‘zgarishlarning guvohi bo‘lmoqdamizki, mamalakatimizda inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati doirasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bularning isboti sifatida bepul tibbiy xizmatlarning ko‘rsatilayotganligi, ta‘lim olishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ilklyuziv ta‘limlar tashkil etilganligi, magistratura bosqichida ta‘lim olayotgan xotin-qizlarning kontraktlari to‘lab berilayotganligi, kam ta‘minlangan oilalarga bir martalik moddiy yordamlarning berilishi hamda nogironligi bo‘lganlarga zarur bo‘lgan buyumlarning bepul tarqatilishi kabilarda ko‘rishimiz mumkin. Eng asosiysi, 2023-yil 1-iyunda Prezident huzurida “Ijtimoiy himoya milliy agentligi” tashkil etildi. Ushbu agentlik aholiga aniq manzilli yordam ko‘rsatish hamda fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini ta‘minlash va ijtimoiy xizmatlarning sifatini tubdan yaxshilash maqsadida yaratildi. “Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi.”⁶

30-modda. Ushbu Deklaratsiyadagi hech bir narsa davlat, kishilar guruhi yoki alohida shaxslarga mazkur Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklarni yo‘q qilishga yo‘naltirilgan faoliyat bilan shug‘ullanish yoki harakat qilish mumkin deb talqin etilmasligi kerak.

Guvohi bo‘lganimizdek Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hozirgi zamondagi inson huquq va erkinliklari kafolatining asosidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, davlatning rivojlanishi, taraqqiy etishi, eng avvalo, xalqning farovon, barcha huquqlari himoyalangan va davlat ijtimoiy siyosatidan qoniqish hissi bilan yashashiga bog‘liq. Negaki, huquq va erkinliklar insonlarga yanda ko‘proq imkoniyatlar beradi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi aynan barchamizning ega bo‘lishga haqqimiz bor bo‘lgan, asosiy erkinliklarni himoya qilishimiz uchun keng ko‘lamdagi imkoniyatlarni namoyon qilgan asosiy hujjat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil va qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent, 2017, 6-bet.

2. “Raqamli ijtimoiy ish va aholi himoyasi: muammolar, yechim, istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi (2022-yil 26-dekabr) SAMARQAND – 2023. 69-70-bet.

⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-6480342>



3. Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li "O'zbekiston hududida milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasi bosqichlari (monografiya). Samarqand – 2021. 130-bet.

4. Abbasova Maftuna Subxonovna "Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri" monografiya. Samarqand – 2023. 89-90- betlar

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 28-dekabr 2018-yil. Toshkent – "O'zbekiston" – 2019

6. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida.// O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son// <https://lex.uz/uz/docs/-6480342>